



XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-100-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Sho'rchi tumanida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi yakunlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqollari) saylovi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 16-martdagi "Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi raisi B.Mingboyevning "Sho'rchi tumanida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovining yakunlari to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ning saylovi amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq demokratiya va oshkoralik sharoitida, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligida o'tganligi qayd etilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 16-martdagi KQ-320-IV-sonli qaroriga ko'ra joriy yilning may oyida bo'lib o'tgan tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari raislari saylovlarining yuqori saviyada tashkil etilishi hamda o'tkazilishiga munosib hissa qo'shgan quyidagi tuman ko'maklashuvchi komissiyasi va ishchi guruhlar a'zolari o'rtacha oylik ish haqining 2 (ikki) barobari miqdorida rag'batlantirilsin:

Mengboyev Bo'ron - ko'maklashuvchi komissiya raisi

Norboyev Gulmirza - ko‘maklashuvchi komissiya raisi o‘rinbosari

Nurboyev Akbar - ko‘maklashuvchi komissiya kotibi

Begmatov Komil - ko‘maklashuvchi komissiya a‘zosi

Rajabov Botir - ko‘maklashuvchi komissiya a‘zosi

Qoraboyev O‘ktam - ko‘maklashuvchi komissiya a‘zosi

Shoyeva Nigina - ko‘maklashuvchi komissiya a‘zosi

Xolboyev Chori - Oqqurg‘on MFY ishchi guruh raisi

Pirimov Ilxom - Yangiariq MFY ishchi guruh raisi

Normurodov Jasur - Oynako‘l MFY ishchi guruh raisi

Sultonov Suxrob - Tamshush MFY ishchi guruh raisi

Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Nurboyev):

- Saylov yig‘ilishlarida bildirilgan takliflar, e‘tirozlar va iltimoslar bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va ijrosini to‘liq ta‘minlash;

- Birinchi marotaba fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) etib saylanganlar bilan huquqiy bilimlarini oshirish hamda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq amaldagi qonun hujjatlarining qoidalarini o‘rganish, ularning faoliyatini tashkil etish, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni, oilaviy biznesni rivojlantirish, aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik nazorati, tabiatni muhofaza qilish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamlashtirish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash masalalari yuzasidan o‘quv kurslari bazasida o‘quvlarni reja asosida tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Norqulov), tuman hokimligining Moliya bo‘limi (D.Mirzayev) yuqorida tavsiya etilgan tuman ko‘maklashuvchi komissiyasi va ishchi guruhlar a‘zolariga bir marta to‘lanadigan pul mukofotlarini tegishli tartibda to‘lab birish choralarni ko‘rsin.

5. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari)ning saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasiga:

- Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari)ning vakolatlari muddatidan oldin tugagan taqdirda, bo‘shab qolgan o‘rinlarga qonun hujjatlariga muvofiq saylov o‘tkazib borish vazifasi yuklansin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- Mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, aholining keng qatlamiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohatlar mohiyatini tushuntirish, muhim va dolzarb masalalarni hal etishda ularga amaliy yordam berilishi tavsiya etilsin.

7. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan bir oy muddatda xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot bersin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Rajabov) hamda mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo‘ranov) zimmasiga yuklansin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X